



BUYRUQ

Toshkent shahridagi Inha universitetida korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan ichki hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-240-sonli qarori hamda O'zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining 2022-yil 31-avgustdagi 2-sonli va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2022-yil 31-avgustdagi "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan ularning hududiy bo'linmalari, davlat unitar korxonalari va muassasalari, davlat ulushi 50 foizdan yuqori tashkilotlar faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash uslubiyotini tasdiqlash to'g'risida"gi 5-sonli qo'shma qarori ijrosini samarali tashkil etish bo'yicha Toshkent shahridagi Inha universitetida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash, aniqlash, bartaraf etish, monitoring qilish hamda korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni shakllantirish maqsadida **buyuraman:**

1. Quyidagilar:

Toshkent shahridagi Inha universiteti faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Siyosati 1-ilovaga muvofiq;

Toshkent shahridagi Inha universiteti faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash Uslubiyoti 2-ilovaga muvofiq;

Toshkent shahridagi Inha universiteti faoliyatida manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha Nizom 3-ilovaga muvofiq;

Toshkent shahridagi Inha universiteti faoliyatida aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to'g'risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko'rib chiqish Reglamenti 4-ilovaga muvofiq;

Toshkent shahridagi Inha universiteti faoliyatida xodimlarining etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitilishini tashkil qilish bo'yicha Yo'riqnoma 5-ilovaga muvofiq;

Toshkent shahridagi Inha universiteti faoliyatida kontragentlarni tekshirishga oid Yo'riqnoma 6-ilovaga muvofiq;

Toshkent shahridagi Inha universiteti faoliyatida ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha Yo'riqnoma 7-ilovaga muvofiq;

Toshkent shahridagi Inha universiteti faoliyatida Korrupsiyaga qarshi tartib-
taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish Uslubiyoti 8-ilovaga
muvofiq;

Toshkent shahridagi Inha universitetida korrupsiyaga qarshi kurash
tizimining holati to'g'risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo'yicha
Nizom 9-ilovaga muvofiq;

Toshkent shahridagi Inha universiteti faoliyatida xodimlarining
korrupsiyaviy xatti-xarakatlari va odob-ahloq qoidalarini buzish holatlari ustidan
xizmat tekshiruvlari o'tkazish bo'yicha Reglament 10-ilovaga muvofiq;

Toshkent shahridagi Inha universitetida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni
sodir etishga undash holatlari haqida xabar berish, ularni ro'yxatga olish, ko'rib
chiqish hamda ularga qarshi kurashishdagi xodimlarning faol ishtiroki uchun
rag'batlantirish to'g'risidagi Tartib 11-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

**2. Xodimlar bo'limi (N.Isamuxamedova), Yuridik bo'limi bosh
yuriskonsulti (I.Yuldashev) bilan birgalikda:**

universitetning barcha xodimlarini uch kun muddatda mazkur buyruq bilan
tanishtirilishi;

ushbu qabul qilingan xujjatlar bo'yicha universitet xodimlari o'rtasida
seminar tashkil etilishini ta'minlasinlar.

**3. Xodimlar bo'limi (N.Isamuxamedova), Iqtisodiy prognozlashtirish va
moliyaviy rejalashtirish bo'limi (B.Nazarov), Xaridlar bo'limi
(U.Mamadaliyev), Monitoring va ijro nazorati bo'limi (T.Matchanov),
Yuridik bo'lim (X.Akramova), Yuridik bo'limi bosh yuriskonsulti
(I.Yuldashev):**

universitetning tegishli ichki xujjatlari va o'zining bo'limlariga taluqli
xujjatlarini ushbu buyruqqa muvofiq lashtirilishini;

qabul qilingan xujjatlarni amaliyotda to'liq tadbiq etilishini ta'minlasinlar.

**4. Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan aloqalar bo'limi
(N.Kajayeva)** Toshkent shahridagi Inha universitetida korrupsiyaga qarshi
kurashish siyosati doirasida amalga oshirilayotgan ishlarning universitetning
rasmiy veb-sayti, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari orqali keng yoritib borilishini
ta'minlasin.

5. Ushbu buyruq bajarilishi yuzasidan nazoratni o'z zimmamda qoldiraman.

Birinchi prorektor



T. Tursunmuratov